

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

OLGA ALEKSANDROVNA SUXAREVA TADQIQOTLARIDA BUXORO TARIXI MASALALARINING YORITILISHI

Bahronov Firdavs

Osiyo xalqaro universiteti, Tarix ta'lif yo'naliishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: Buxoro o'z tarixi, madaniyati, urf-odatlari va tarixiy yodgorliklari bilan butun dunyoga mashhur bo'lib, ushbu jihatlar tarixchilarni o'ziga jalb qilib keladi. Buxoro tarixini tadqiq qilgan zabardast olimlardan biri – O. A. Suxarevadir. Nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyo davlatlarida ham tarix, etnografiya, arxeologiya sohalarida tadqiqot olib boradigan olimlar borki, ularning barchasi Suxareva O.A.ni yaxshi biladi. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo tarixi mutaxassis, sharqshunos, etnograf olima Olga Aleksandrovna Suxareva o'zining 80 yillik umrining qariyb 60 yilini murabbiylilik, ya'ni turli oliv va o'rta ta'lif maskanlarida yoshlarga tarix ilmidan saboq berish, muzeylear sohasini rivojlantirish va asosan ilm-fan rivojiga baxshida etdi.

Kalit so'zlar: Buxoro tarixi, arxeologiyasi, etnografiyası, guzarlar, mahallalar.

KIRISH: Olga Suxareva 1903-yil 15-fevralda Samarqand shahrida tug'ilgan. U tomonidan Buxoro va Samarqand shaharlarining urf-odatlari, an'analar, tarixiy topografiyasi, toponimiyasi o'rganildi. 1921-yilda Olga Suxareva O'rta Osiyo Davlat universiteti tarkibidagi Turkiston Sharqshunoslik institutiga o'qishga qabul qilindi va 1925-yilda ushbu dargohni muvaffaqiyatli tamomladi. 1940-yil 15-fevralida Leningrad davlat universitetining filologiya fakultetining etnografiya bo'limida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. O. A. Suxareva 1946-yilgacha Samarqanddaggi O'zbekiston Davlat universiteti Tarix fakultetida ishladi. U O'rta Osiyo xalqlari etnografiyasidan ma'ruzalar qildi.

1946-yilda O. A. Suxareva Toshkentga keldi va O'zSSR FA Tarix va arxeologiya institutida 1967-yilgacha ishladi. 1967-yilda O. A. Suxarevaga Moskvaga keladi va 1968-yilda unga SSSR FA Etnografiya institutida O'rta Osiyo va Qozog'iston bo'limi mudiri lavozimi beriladi. O. A. Suxareva 1983-yilning 22-yanvarida Moskva shahrida vafot etdi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR: Uning 1963 yilda himoya qilgan doktorlik dissertasiyasi mavzusi "Buxoro XIX va XX asr boshi:

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

so‘nggi o‘rta asrlardagi shahar va uning aholisi” deb nomlanib, unda olimaning 50-60-yillar davomida deyarli har yili Buxoroga qilgan safarida to‘plagan boy ma’lumotlari, katta yoshli Buxoro aholisi bilan suhbatlari, shahar kvartallarini , topografiyasini o‘rganishi, tarixiy asarlarni ko‘zdan kechirishi va sayyohlik ma’lumotlari, xullas, 10 yillik tadqiqotlari o‘rin oladi va natijada bir necha monografiyalar nashr etadi. Bular 1956 yilda “Buxoro xonligi tarixidan”, 1962 yilda “So‘nggi o‘rta asrlar shahri Buxoro XIX asr - XX asr boshlarida. Hunarmandchilik sanoati”, 1966 yilda “Buxoro XIX asr-XX asr boshi: so‘nggi o‘rta asrlardagi shahar va uning aholisi”¹. Aynan so‘nggi kitobining 1-bo‘limida Buxoro shahri hududi va topografiyasi, geografik joylashuvi hamda tabiatni, bozorlar, karvonsaroylar, tarixiy joylar, qabristonlar, aholi guzarlari, shuningdek, shaharning qurilish rejasi haqida juda ko‘plab tarixiy ma’lumot berilgan. XIX asr oxiri-XX asr boshida Buxoro shahridagi 30 ga yaqin guzarlarning ma’lum bir hunarmandchilik turi nomi bilan nomlanishi va ularning joylashuvi asarda aniq ko‘rsatilgan. Ya’ni, o‘scha davrlarda Buxoro aholisining muhim ijtimoiy qatlamlaridan biri bo‘lgan hunarmand-savdogarlar bir tomonidan oddiy xalq hisoblansalarda, boshqa tomonidan o‘z mablag‘lari bilan qishloq dehqonlaridan oldingi qatorda turishgan. Ular turli hunarmandchilik turi bilan shug‘ullanib, hunarini davom ettiruvchi shogirdlar tayyorlash, o‘z mahsulotlari bilan bozorni to‘ldirish, eksportbop mahsulotlar tayyorlab, tashqi savdo rivojini, turnaqator karvonlarda import, eksport xizmatini yurgizuvchi savdogarlarni ta’minalash bilan kun kechirishgan. Jumladan, xaritada ko‘rsatilgan to‘qimachilar, zargarlar, misgarlar, temirchilar, degrezchilar, kulollar, bo‘yroboflar, gilkorlar, duradgorlar, etikdo‘zlar, kamarbandlar, zardo‘zlar, jomado‘zlar, po‘stindo‘zlar, telpakdo‘zlar, charmgarlar, pistashikanlar va hokazo guzarlarda maxsus shu hunar bilan shug‘ullanuvchi ustalar yashagan, faoliyat olib borgan va albatta, guzarda hunarmand ustaxonasi bo‘lgan. Ma’lum bir mahsulotga talab, ehtiyoj sezilsa, guzar nomi bilan bunday mahsulotni yasovchi hunarmandlarni topish qiyinchilik tug‘dirmagan.

NATIJALAR: O.A.Suxareva o‘z kuzatishlarini Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Ahmad ibn Mahmudning “Mullazoda kitobi”

¹ Сухарева О.А. . Бухара XIX – начало XX в (Позднефеодальный город и его население). –М.: Наука. 1966. –С.38. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи с историей кварталов). –М.: Наука. 1976. –С.355-356.

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

kabi asarlarini tadqiq qilishdan va Buxoro guzarlarida yashayotgan keksalar bilan suhbatlashishdan boshladi. Shuningdek, olma o'tmishdoshlari Parfenov va Feninlarning ma'lumotiga tayanib, har bir guzarning ixcham tarixini yozib qoldirdi. O.A.Suxareva ishining ustunligi shundaki, u har bir guzarni alohida alohida tarzda yoritdi. Shuning uchun olimaning kitobi shahrimiz guzarlari tarixini biluvchilarga keng ma'lumotlar beradi. L.I.Rempel esa Buxoro guzarlari tarixini yangi yo'nalishda, ularning shakllanish xususiyatiga qarab umumlashtirishga harakat qildi. Ana shu tariqa Buxoro va uning guzarlariga doir qiziqishlar davom etdi. Har bir muallif o'z asarini o'sha davr taqazosiga ko'ra to'pladi va kelajak avlodlarga yozib qoldirdi. Muhammad Narshaxiydan boshlab bugungi kunga qadar Buxoro va uning guzarlari tarixi haqida yozish davom etmoqda. Undan tashqari Sadriddin Ayniyning tarixiy romanlari, "Esdaliklar" va Abdurauf Fitratning ilmiy-badiiy asarlarida ham Buxoro guzarlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Barcha shaharlarning tarixi taraqqiyot yohud inqiroz bosqichlarini boshidan kechiradi. Ma'lum bir tarixiy vaziyat shahar hududining kengayishiga sabab bo'lsa, jang-u-jadallar uni xarobaga aylantiradi. Shu sabablar shaharning hududiga ta'sir etib, uning guzarlariga ham natijasini ko'rsatadi. Shahar hududining kengayib, qisqarishi guzarlari miqdoriga ham ta'sir ko'rsatgan. Aynan shunday hodisalar Buxoro shaxridan mustasno emas. Keltirilgan ma'lumotlar turli davrlarga oid bo'lgani sabab Buxoro shahri guzarlari soni turlicha keltirilgan¹. Rus sharqshunoslaridan A.Kun va L.I.Rempellarning asarlarida XIX asr shahar hududida 197 guzar bo'lganligini qayd etadilar. G.Yu.Astanova esa XX asr boshlarida Buxoro shahrining 200 guzari bo'lib, unda 25 ming hovli joylashganligi, aholi soni esa 60-70 ming atrofida bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Buxoro shahriga oid maqolalarni yozgan mualliflar esa mubolag'ali 360 raqamini keltiradi. Holbuki, Parfenovgina Buxoro guzarlari sonini 220 ta deb ko'rsatadi.

MUHOKAMA:Xullas, XX asr boshlarida Buxoroda ikki yuzdan ortiq guzarning bo'lganini uchratamiz. Buxoro guzarlari nomini ko'zdan kuchirar ekanmiz, o'sha mahallalarning shakllanishida u yerda o'troqlashgan aholining kasbu-kori, mavzening iqlimi, geografik tuzilishi kabi omillar inobatga olinganligining guvohi bo'lamiz. So'zangaron, Puxtabofon Zargaron,

¹ Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи с историей кварталов). –М.: Наука. 1976. –С.355-356.

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Charmgaron, Urganjiyon, Saraxsiyon, Uruson, Havzi Nav, Ko'chai Bodom, Hammomi Karra, Hammomi kunjak, Eshoni imlo, G'oziyon, Domullo Sher, Xo'ja Zayniddin va boshqa nomdagi guzarlar mavjud bo'lgan. XX asrning birinchi choragiga kelib guzarlar soni kamayib borgan. Viloyat hujjatlarida saqlanayotgan ro'yxatga ko'ra 1927 yilda Buxoro shahrida 188 guzar bo'lgan. Yildan-yilga guzarlar soni kamayib borganini uchratamiz. Shahar qal'asining buzilishi, yangi ko'chalarining barpo etilishi, hududning kengayib borishi guzarlar sonining kamayishiga sabab bo'lgan. Shu o'rinda yana bir ma'lumotni aytish zarur, Buxoro shahrining ichki tuzilishida guzardan tashqari geografik bo'linmalar ham mavjud bo'lgan. Qadimiyligi nomi saqlangan bunday joylar mavzelar deb atalgan. Manbalar Buxoro shahri ichida Shayx Rangrez, Turki Jandi, Jo'ybor, Chashmai Ayyub, Registon, Xiyobon, Murdasho'yon, So'fiyon, Govkushon, Shahriston, Iskandarxon, Kalobot nomlari bilan mashhur mavzelar bo'lganligini ko'rsatadi. Buxoro shahridagi ikki yuzga yaqin guzarlar geografik hududiga ko'ra yuqoridagi mavzelarga birlashgan.

Shayx Rangrez mavzesida 18 ta: Shayx Rangrez yoki Darvozai Qavola, Arabon, Muhammad Qosim, Islom, Xalifa Huseyn, Pochchoxo'ja, Mir Ma'sud, Xo'ja bulg'or, Kokilai Kalon, Kuyi Murg'kush, Mirzobiy, Chor karvonsaroy, Mullo Shamsi Muhammad, Xo'jaxalim, Mahallai ko'hna, Alvonj, Eshoni pir, Mehtar Shafe' nomdagi guzarlar mavjud bo'lgan. Turki Jandi mavzesida esa 20 ta: Turki Jandi yoki Tai pushta, Xonaqoi Cho'qmoq, G'oziyon, Saraxsiyon, Kosagaron, Mirakon, Qutlug', Mullo Xoki roh, Po'stindo'zon, Sesu yoki Sesuki Tarrohi, Obi ravon, Hoji Amonboy, Shayx Shoh, Mahallayi Nav, Barakiyon, Mahalla Amirobod, G'aribiya, Sohibzoda kabi guzarlar mavjud bo'lgan.

Jo'ybor mavzesi ham 20 ta: Vaqf, Tai chorbog', Charmgaron, Dastorbandon, Abdullaxo'ja, Havzi baland, O'zbek xo'ja, Xalifa Xudoydod, Qozi Zohid, Chaqar, Shoh Malik, Pistashikanon yoki Kalta xo'ja, Xonaqo, Puxtabofon, Chuqur mahalla, Jo'yzor, Shahri nav, Urganjiyon, Havzi navguzarlar bo'lgan.

Yuqoridagi kabi shaharlarning mavzelarga bo'linishi, ularning guzarlarga bo'linishi, Buxoro vohasining boshqa hududlaridagi shaharlarda ham mavjud. Xususan, Vobkent shahar-qo'rg'oni ichida o'z nomiga ega bo'lagan guzarlar mavjud bo'lganligini manbalar tasdiqlaydi. Masalan: Miri Kalon guzari, Miri Xurd guzari, Masjidi Poxsa guzari, Masjidi Qassobiyl guzari, Puli Musicha

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

guzari, Beklar guzari, Kobz guzari, Namozgoh guzari, Sari Osiyoyi Vobkand guzari².

XULOSA: Markaziy Osiyo tarixi mutaxassis, sharqshunos, etnograf olima Olga Aleksandrovna Suxareva Buxoro tarixi, etnografiyasiga oid ko'plab tadqiqotlarni amalga oshirib, u yaratgan asarlar o'lka tarixini o'rghanishda fundamental asarlar bo'lib hisoblanadi. Buxoro shahri hududi va topografiyası, geografik joylashuvi hamda tabiatı, bazarlar, karvonsaroylar, tarixiy joylar, qabristonlar, aholi guzarları, shuningdek, shaharning qurilish rejasi haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Сухарева О.А. . Бухара XIX – начало XX в (Позднефеодальный город и его население). –М.: Наука. 1966. –С.38. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи с историей кварталов). –М.: Наука. 1976. –С.355-356

2. X.Ризаев ва бошқалар.Вобкент тумани:Ўтмиши,бугуни.келажаги. – Т:2002. –Б.14

² X.Ризаев ва бошқалар.Вобкент тумани:Ўтмиши,бугуни.келажаги. – Т:2002. –Б.14